



BADIIY ASARDA METAFORANING QO'LLANISHI. (O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASI ASOSIDA)

Oltiboyeva Diyora Nodirbekovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13338095>

ABSTRACT

ARTICLE INFO

Received: 10th August 2024
Accepted: 17th August 2024
Published: 18th August 2024

KEYWORDS

*metafora, o'xshatish, ma'no ko'chish,
sharq ayoli xarakteri, metaforik ma'no*

Ushbu maqolada metafora hodisasi, uning badiiy asarlarda faol qo'llanishi hamda uning amaliy ahamiyati haqida tahlillar keltirilgan. O'tkir Hoshimovning nasriy asarlarida, xususan, "Dunyoning ishlari" qissasida foydalanilgan metafora, uning asar mohiyati, qahramonlar xarakteri va psixologiyasidagi va asarning badiiy jozibasidagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Nutqimizda keng tarqalgan ma'no ko'chish usullaridan biri metaforadir. Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Metafora (yunoncha metaphora - ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir¹. Masalan: ariqning boshi, yurtimiz quyoshi, daraxtning ko'zi

Metaforalarni o'rganish qadimgi davrlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo'lgan mavzu hisoblanadi. Antik davrlarda metaforani olamni anglashning alohida usuli va vositasi sifatida ko'rsatish Aristotel (shuningdek Sitseron)ga taalluqli g'oyadir. D. F.Sitseron, Kvintiliandan farqli ravishda, ilk marta metafora orqali buyumlar to'g'risidagi ma'lumotni aniq va ravshan yetkazish mumkinligini payqadi.

Metaforalarga juda yaqin yana bir vosita bu o'xshatishdir. O'xshatish ham ko'chma ma'no ustiga qurilishi bilan metaforalarga o'xshash bo'lib, ular yordamida shaxs va predmetlar bir-biriga o'xshatiladi. Masalan: Adashgan it kabi, Furqat qayon borgun bilolmasman². Lekin o'xshatishlarda metaforalardan farqli o'laroq -dek, -day, -simon, -vash, -namo, kabi, singari, yanglig', misoli, o'xshash kabi vositalar qo'llaniladi. Masalan: Ulug'bek - yurtimiz quyoshi. (metafora)

Ulug'bek misoli quyosh. (o'xshatish)

Agar adabiyotshunoslikda ham metafora va o'xshatishni bir-biridan farqlaydigan bo'lsak, metafora istiora san'atini hosil qiladi, o'xshatish esa, tashbeh sanatini hosil qiladi. Ko'chma

¹ Eshpulatova O'. Badiiy adabiyot diskursida metafara. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillar. 22-to'plam sentyabr 2023.

²Abduolimova M. Metaforaning tilshunoslikda namoyon bo'lishi va uning ilmiy ahamiyati. <https://cyberleninka.ru/article/n/metaforaning-tilshunoslikda-namoyon-bo-lishi-va-uning-ilmiy-ahamiyati>

ma'no biror so'z leksik ma'nosi referenti bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo'lganligi uchun, uning nomida atalib ketishi orqali yuzaga keladi. Ya'ni so'z leksik ma'nosi ikkinchi bir leksik ma'noni hosil qiladi. Shu sababli keyingi leksik ma'no metafora deb ataladi³.

Quyida "Dunyoning ishlari" qissasidagi metaforalardan ayrimlarini tahlil qilamiz. Yozuvchi O'tkir Hoshimov ijodida ham o'ziga xos, takrorlanmas, original o'xshatishlarni ko'plab uchratamiz. Birgina asar ibtidosidagi "Oq oydin kechalar" hikoyasida yoshlik davrlari quyidagicha tasvirlangan: Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi. Hovlimizda bir tup bodom bo'lardi. Erta bahorda qiyg'os gullardi-yu, hech meva tugmasdi. Onam: "Bodom yolg'iz bo'lgani uchun meva qilmaydi", deb tushuntirardi. Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko'loblatib suv separ, kunbo'yi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi. Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to'lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi³. **Iliq yoz kechalari, erta bahor, yer hidi, ingichka oy** metaforalari orqali yozuvchi unutilmas yoshlikni yuksak mahorat bilan tasvirlagan.

Muallifning onasi o'z harakatlari, qarashlari, fikr-mulohazalari bilan aynan sharq ayoli obrazini to'liq tasvirlaganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. "Ikki afsona" hikoyasida muallif onasining barvaqt turib, ko'cha supurib ishlaganini, farzandlarini ham yordamga chaqirganini eslab o'tadi. Beg'ubor bolalikning sho'xligini: **shirin uxlamog, "shaytonlik" qilaman, boshida shoxi bor** metaforalari orqali yanada oydinlashtiradi.

Endi shirin uxlab yotganda oyim sekin turtadi: – Bo'la qol, o'g'lim, hali zamon kun yoyilib ketadi. O'zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uxlab yotganida sen suv sepib yo'lka supurishing... Nima desam ekan... Sal alam qiladi kishiga. Shundanmi, vaqti-vaqti bilan «shaytonlik» qilaman. Goh boshim og'rib qoladi, goh oyog'im... Oyim negadir ko'proq meni avaylaydi. O'rnimga o'zim bilan bir ko'rpada tepishib yotadigan Abduvohid degan o'rtog'immi, akammi turib ketadi. Ba'zan dadamning jahli chiqadi. «Nima, buningni boshida shoxi bormi, ishlasin-da», deydi.⁴

"Xiyonat" hikoyasida esa muallif o'zining ichki ko'nikmalari va boshqa insonlar ortidan ko'rgan nohaqliklariga qaramasdan, uning ham shu insonlar singari asta-sekinlik bilan jamiyat tasiri ostida salbiy tomonga o'zgarishini ko'rsatadi.

Osmonda xoin oy kezar, behayo iljayganча harom nurini sochar, xiyonatkor yulduzlar xoinlarcha ko'z qisishar, xiyonatkor shamol xoinona qiqir-qiqir kular edi⁵. **Xoin oy, xiyonatkor yulduzlar, xiyonatkor shamol** metaforalari orqali muallif nafaqat jamiyat balki tabiatning o'ziga nisbatan nohaq tazyiqini ko'rsatib bergan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuvchi asarda metafora hodisasidan qahramonlar xarakteridagi eng mayda detallarni ham yoritib berishda, obrazlarni tasvirlashda, xalq tilining "jonli" muloqot tilini o'rganishda hamda asar qahramonlarining milliy xarakterini ochib berishda unumli foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmonov.A., Sobirov.A., Qosimova.N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T: Ilm ziyo, 2013y. –B.190.
2. Xayitboyeva.M. "Xarakter-xususiyat asosidagi metaforalarni o'rgatish usullari" bmi.- T.; 2018.7-B.v
3. https://oriens.uz/media/journalarticles/23_Abduolimova_Maftuna_151-156.pdf
4. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasi. Yoshlar nashriyot uyi; Toshkent – 2018. Yangi avlod, - **Toshkent**, 2019. -B. 45.
5. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasi. Yoshlar nashriyot uyi; Toshkent – 2018. Yangi avlod, - **Toshkent**, 2019. -B. 8

³ https://oriens.uz/media/journalarticles/23_Abduolimova_Maftuna_151-156.pdf

⁴ O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasi. Yoshlar nashriyot uyi; Toshkent – 2018

⁵ Ko'rsatilgan manbaa. Yangi avlod, - **Toshkent**, 2019. -B. 45.